O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

NOROVA SHAHODAT BAXODIROVNA

ASQAD MUXTORNING BADIIY TIL MAHORATI
("Chinor" romani misolida)

10.00.01 – O'zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

NOROVA SHAHODAT BAXODIROVNA

ASQAD MUXTORNING BADIIY TIL MAHORATI

("Chinor" romani misolida)

10.00.01 – O'zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.4.PhD/Fil4024 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti veb-sahifasining "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining www.ziyonet.uz. manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Yuldashev Ma'rufjon Muhammadjonovich**
                                          filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Mamatov Abdi Eshonqulovich**
                                          filologiya fanlari doktori, professor

                                          Andaniyazova Dilrabo Ruziqulovna
                                          filologiya fanlari bo'yicha falasafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: **Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil " 3 " aprel soat 14⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil:100060, Toshkent shahri, Shahrisabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel.: (871) 233-71-44; faks: (871) 233-71-44; e-mail:uztafi@academy.uz.)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (15 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil " 16 " mart da tarqatildi.
(2024-yil " 16 " mart dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi).

N.M.Mahmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

G'.M.Ismoilov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, f.f.n, katta ilmiy xodim

D.S.Xudayberganova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida badiiy asar tiliga munosabat va til birliklarining asar matnidagi vazifasini atroflicha tadqiq etishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Xususan, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, badiiy asarning lingvopoetik xususiyatlarini o'rganishga qiziqish dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, antropotsentrik tamoyillarga asoslangan tadqiqotlarning ko'payishi tildek behad murakkab hodisaning mohiyatini tugal va aniq anglash imkonini bermoqda. Bu borada muayyan adib asarlari tiliga oid lisoniy birliklarga antropotsentrik jihatdan yondashish asosidagi lingvopoetika, lingvopragmatika va lingvokulturologiya kabi sohalarning jadal rivojlanayotganligini ham aytib o'tish joizdir. Yozuvchi va shoirlarning badiiy til mahoratini tadqiq qilish orqali milliy tilning ifoda imkonlarini aniqlash g'oyat dolzarb vazifalardan sanaladi.

Dunyo tilshunosligida badiiy matnni lingvopoetik jihatdan tadqiq etish matn ichidagi so'zlarning o'zaro bog'lanishini, aloqadorliklar hosil qilishini va muayyan birlikning poetik aktuallashuvini atroflicha o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda olib borilayotgan lingvopoetikaga aloqador tadqiqotlarga nazar solinsa, asosan, so'z va uning badiiy matndagi ifoda shakllari, u yoki bu lisoniy birlikning poetik aktuallashuvi, dialogik va monologik nutqda qo'llaniluvchi badiiy-tasviriy vositalarning lingvopoetik imkoniyatlari, matnlararo aloqadorliklarning funksional xususiyatlari, fanlararo integratsiyani ta'kidlovchi tadqiqot tamoyillari va ijodkor mahoratini belgilovchi hodisalar tadqiqiga ko'proq e'tibor qaratilayotganligi sezilmoqda. Ayniqsa, ijodkorning lisoniy mahoratini tadqiq qilishga e'tibor har qachongidan ko'ra sezilarli darajada ortganligi kuzatiladi. Bu boradagi tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj lingvopoetikaga oid izlanishlarning maqsadi va vazifalarini ham belgilaydi. Shu bois dunyo tilshunosligida bunday tadqiqotlar lingvopoetikaning dolzarb muammolari doirasida baholanadi.

O'zbek tilshunosligida ham mazkur masalalar muayyan darajada tadqiq etilmoqda va e'tirof qilishga arzigulik natijalarga erishilmoqda. Shunga qaramay, badiiy til bobida o'ziga xos maktab yaratgan atoqli ijodkorlarning asarlari va muallifning lisoniy mahorati bilan bog'liq tadqiqotlarni yetarli deb bo'lmaydi. Badiiy asar tili hamda ijodkorning lisoniy mahoratini o'rganish orqali milliy tilning naqadar boy va betakror tasvir imkonlariga ega ekanligini dalillash mumkin. Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayoni har bir xalqning azaliy qadriyatlari, ma'naviy merosini asrash, qo'lyozma va yozma manbalarini o'rganish, ularning til xususiyatlarini tadqiq qilishni kun tartibiga qo'ymoqda. "Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma'rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulkidir"[1]. Mustaqillik yillarida ma'naviy va madaniy qadriyatlarimizni ulug'lash, ona tilimizga davlat tili maqomi berilishi tilimizning voqealanishini, qo'llanish ko'lamini har tomonlama tadqiq etishni taqozo etmoqda. Bu davrda yaratilgan badiiy matnlarni o'rganish, lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil etish nafaqat ijodkorlar, balki o'zbek xalqining, kitobxonining lisoniy saviyasini va

---

[1] Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistonda Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. Qaror. / Xalq so'zi. – Toshkent, 2017. 24-iyun.

nutqiy jarayonda yuzaga kelgan o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Binobarin, "...Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ijodiy g'oya va ishlanmalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash vazifasi" ham har qanday nazariy izlanishlar amaliy natijalar berishi lozimligini nazarda tutadi[2]. Shunga ko'ra, til sathlari birliklarining poetik vazifalarini aniqlash, lingvopoetikaning nazariy masalalarini tadqiq etish, uning yangi fanlar tizimidagi o'rnini belgilash bugungi o'zbek tilshunosligining muhim masalalaridan biridir. Ma'lum bir o'zbek yozuvchisi asarlari tilining estetik-ekspressiv vositalarga, ohorli iboralar va rang-barang ko'chimlarga boyligini aniqlash hamda badiiy matnda mavjud sintaktik qurilmalarning o'ziga xosligi bilan alohida ahamiyatga ega ekanligini tadqiq qilish zaruriyati mavjud. Shu boisdan ham badiiy matn tilini lingvopoetik aspektda tadqiq etish va ma'lum bir adibning badiiy til mahoratini belgilash zamonaviy tilshunosligimiz uchun yangi ilmiy xulosalar berish imkonini yaratishi bilan ahamiyatlidir.

O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni va 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, shunigdek, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-58-50-son "O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son" 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlarga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Badiiy asar tilini o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar jahon tilshunosligida o'ziga xos o'ringa ega. Dunyo tilshunosligida badiiy asar tili haqidagi ilk qarashlarni Aristotelning "Poetika" asarida uchratamiz. Badiiy adabiyotning, umuman, adabiyotning so'z san'ati ekanligi, uning

---

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017-yil, 22-dekabrdagi nutqi / Xalq so'zi. – Тошкент, 2017-yil, 23-dekabr. – №258.

birinchi unsuri til ekanligi juda qadim zamonlardan beri ta'kidlanib unda umumxalq tilidagi nutq vositalari ijodiy ravishda qayta ishlanadi"[3].

Badiiy adabiyot shunday xususiyatlarga egaligi sababli uni ham tilshunoslikning, ham adabiyotshunoslikning zarur o'rganish predmeti, deb qarash mumkin[4]. Badiiy asar tahlili tilning cheksiz imkoniyatlarini ochib beribgina qolmay, balki badiiy estetik qimmatni belgilashda, ma'lum ijodkor ijodi va mahoratiga baho berishda, uning tildan foydalanish imkoniyatini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. Taniqli nemis faylasufi F.Shleyermaxerning badiiy asarni tushunish bo'yicha o'rtaga tashlagan savoli hali hanuz o'z qimmatini yo'qotgan emas: muallif nima demoqchi va u fikrini qanday ifodalagan?[5] Aynan shu nuqtada badiiy til muammosi o'rtaga chiqadi. Badiiy asar tilini o'rganishning ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ahamiyatli sanalgan aspektlaridan biri – lingvopoetikada aynan shu jihatlar tadqiq qilinadi. "Badiiy adabiyot tili lingvopoetik tadqiqotlar uchun asosiy obyekt" hisoblanib[6], unda badiiy asar filologik nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Tilshunosligimizda ma'lum davrda yashagan shoir va yozuvchilarning uslubini tadqiq qilish borasida qator ilmiy ishlar[7] va o'zbek badiiy matni lingvopoetikasi masalalariga bag'ishlangan bir qancha monografik tadqiqotlar yaratilgan[8].

---

[3] Виноградов В.В. О языке художественной литературе. – М., 1979. – С. 223.

[4] Виноградов В.В. Ko'rsatilgan asar. – В. 4.

[5] Шлейермахер Ф. Герменевтика. – Спб.: "Европейский Дом", 2004. –С. 242. Электронная книга. Лингвистик. Философия языка.

[6] Григорьев В.П. Поэтика слова. – М., 1979. – С. 4.

[7] Каримов С.Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. … фан. д-ри дисс. – Тошкент, 1994. – 292 б.; Жумаев Т. Умар Боқий асарларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент,1997.– 23 б.; Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 25 б.; Сайидов Ё. Фитрат бадиий асарлари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 24 б.; Бабаджанов Ф. Ўзбек жадид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Беҳбудий ва Авлоний драмалари асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002. – 23 б.; Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004. – 23 б.; Тожибоев М. Муҳаммад Шайбоний девони тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 24 б.; Джалалова Л. Абдулла Қодирийнинг "Ўткан кунлар"романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 22 б.; Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 25 б.; Халиков А. "Гўрўғлининг туғилиши" достони тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 24 б.; Ҳасанов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 26 б.; Кадирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 26 б.; Ҳамраева Х. Озод Шарафиддинов публицистикасининг тили ва услуби: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 27 б.; Тошхўжаева Ш.Ғ. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. ... фалсафа д-ри (Phd) дисс. автореф. – Фарғона, 2017. – 50 б.

[8] Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1994. – 292 б.; Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1994. – 292 б.; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 25 б.; Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 27 б.; Жамолиддинова Д. Бадиий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 27 б.; Маҳмадиев Ш.С. Ўзбек халқ достонлари тилида стилистик формулалар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 26.; Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2008. – 313 б.;Ибрагимова Ф. Бадиий матнда эллипсис ва антиэллипсис: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 26 б.; Анданиёзова Д.Р. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. ... фалсафа доктори (Phd) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 50 б.; Аллаёров Т.Р. Ўзбек тилидаги буйруқ ва сўроқ конструкцияларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. ... фалсафа д-ри (Phd) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 25 б.; Муқимова З.Р. Ўткир

Binobarin, Asqad Muxtor asarlarini lingvopoetik jihatdan tadqiq etish, asar tilida qo'llanilgan leksik-semantik hodisalarni aniqlash, hozirgi o'zbek tiliga munosabatini belgilash muhim vazifalardan hisoblanadi. Asar badiiyatini ta'minlashga xizmat qilgan metafora, metonimiya, sinekdoxa, ironiya, oksyumoron, o'xshatishlar, sinonim, antonim, parema, takror, so'roq va buyruq gaplar, paranteza, intertekstuallik kabi ifoda vositalarini o'rganish va tahlil qilish behad ahamiyatlidir. Shu bois dissertatsiyada "Chinor" asarining e'tiborga molik tili lingvopoetik aspektda ilk bor tadqiq qilindi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining "O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari va ularning yechimi" mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi "Chinor" romanini lingvopoetik aspektda o'rganib Asqad Muxtorning badiiy til mahoratini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Asqad Muxtorning "Chinor" romani matnining badiiy til xususiyatlarini aniqlash;

romanda qo'llanilgan sinonim va antonim so'zlarning poetik imkoniyatlarini ochib berish;

asarda qo'llangan leksik qatlamlarning ko'lami va badiiyatini ochib berish;

romandagi so'zlarning poetik xususiyatlari, ya'ni metafora, metonimiya, sinekdoxa va o'xshatish qurilmalarining tadqiqi orqali muallifning so'z qo'llash mahoratini yoritish;

frazeologizmlarning roman badiiyatini oshirishdagi o'rnini ochib berish;

takrorlanuvchi birliklarning struktur-semantik va poetik tabiatini aniqlash;

paranteza, intertekstuallik, imperativ va interrogativ qurilmalarning asardagi o'rnini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Asqad Muxtorning "Chinor"romani (2018-yil "Yangi asr avlodi" nashriyoti; 1975-yil G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti) matni tanlangan.

Tadqiqotning predmeti. Asqad Muxtorning "Chinor" romani misolida adibning badiiy til mahoratini aniqlash hamda asar matnidagi lisoniy birliklarning o'ziga xos lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida qiyoslash, zidlash, tasniflash, kontekstual, distributiv, lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Asqad Muxtorning "Chinor" romanidagi *bola-go'dak, do'zax-jahannam* kabi ma'nodosh birliklar va *aybsiz-aybdor, azobli-shirin* kabi zid ma'nolilik hodisalarining badiiy matn ko'lamdorligi hamda yozuvchi niyatining tugal ifodlanishi, asar tilining o'ziga xosligini ta'minlashga xizmat qilishi dalillangan;

Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. ... фалсафа д-ри (Phd) дисс. – Тошкент, 2020. – 160 б.

asar yozilgan davr ruhini aks ettiruvchi so'z va iboralar, dialektizm, arxaizm va agnonimik birliklarning agnonim-istorizm, agnonim-arxaizm, agnonim-neologizm kabi ko'rinishlari hamda ularning badiiy-estetik vazifasi *obkom, sovxoz, kvazarlar, payantak,chorpichoq* kabi misollar bilan isbotlangan;

Asqad Muxtorning "Chinor" romanida milliy ruh bilan sug'orilgan, tarixiy hamda ijtimoiy muhit ruhiyati aks etgan *chinordek, o'choqma-o'choq, Sayxun, qulog'im sizda* kabi metafora, metonimiya, sinekdoxa va o'xshatish qurilmalardan lingvopoetik maqsadda foydalanilgani ko'rsatilgan;

roman matnidagi *Xalq boshqa-yu deputat boshqa ekanda?Uni kim saylagan o'zi?* kabi imperativ va interrogativ qurilmalari, *Ular yana 3 soat yo'l yurdilar, yo'l yursalar ham mo'l yurdilar* kabi intertekstual vositalari orqali roman tilining sintaktik jihatdan o'ziga xosligini ta'minlashdagi vazifasi va poetik aktuallashuvi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

badiiy matnga yondashuv masalalari, uslubiy yondashuv, lingvomadaniy yondashuv, lingvopoetik, lingvopragmatik yondashuv va lingvokonseptual yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib berilgan;

romanda qo'llanilgan turg'un va boshqa til birliklarining leksik-semantik, lingvopoetik xususiyatlari yoritilgan;

ijodkorning lingvopoetik mahoratini roman tilidagi sintaktik qurilmalarning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi birliklar tahlili orqali ochib berilgan;

tadqiqot obyekti sifatida olingan asarning lisoniy va badiiy-estetik xususiyatini yoritish jarayonida adibning milliy til imkoniyatlaridan qay darajada foydalanilganligi izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, ilmiy ish davomida ishonchli ilmiy-nazariy manbalardan foydalanilganligi, metodologik mukammalligi, qo'yilgan masalalar aniqligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda bajarilgan tahlillar, ilgari surilgan ilmiy-nazariy fikrlar, xulosalar bilan o'zbek tilshunosligining lingvopoetik tadqiqotlar fondini yanada boyitishi, leksik-semantik va sintaktik birliklarning lingvopoetik tahlil qilish usullarini ishlab chiqqanligi bilan izohlangan. Tadqiqot badiiy asarlarnning lingvopoetik xususiyatlarini o'rganishda muhim manba vazifasini o'tashi hamda yangi tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qilishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, undagi tahlillardan, ilmiy-nazariy xulosalardan oliy o'quv yurtlarining o'zbek tili va adabiyoti, lingvistika yo'nalishlaridagi "Badiiy matnning lingvopoetik tahlili", "Lingvopoetika va lingvomadaniyatshunoslik", "Matn tilshunosligi" kabi fanlaridan o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilishda, ma'ruza matnlarini tayyorlashda, umumta'lim maktablari uchun o'zbek tili fani bo'yicha darslik va qo'llanmalar yaratishda, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida o'zbek adabiyoti namoyandalarining milliy til rivojidagi rolini targ'ib etishga xizmat qiluvchi muhim manba bo'lishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Asqad Muxtorning "Chinor" romanining lingvopoetik tadqiqi bo'yicha olingan natijalar asosida:

Asqad Muxtorning "Chinor" romanidagi *bola-go'dak, do'zax-jahannam* kabi ma'nodosh birliklar va *aybsiz-aybdor*, *azobli-shirin* kabi zid ma'nolilik hodisalarining badiiy matn ko'lamdorligi hamda yozuvchi niyatining tugal ifodlanishi, asar tilining o'ziga xosligini ta'minlashga xizmat qilishi hamda qo'llanish doirasi tadqiq etilishi natijasida olingan xulosalardan 2012–2016-yillarda olib borilgan FA-F1-G003 "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi", FA-A1-G007 "Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" mavzulardagi fundamental va amaliy ilmiy loyihalarda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 18.01/03-sonli ma'lumotnomasi). Natijada badiiy matnning lingvopoetik tahlili, badiiy matnda qo'llanilgan leksik-semantik birliklar; sinonim va antonimlarning badiiy matndagi o'rni, milliy-ma'naviy, ijtimoiy-tarixiy ildizlari tilning milliy tabiati bilan uzviy aloqada ekanligi yuzasidan chiqarilgan xulosalar loyihaning ilmiy qimmatini oshirgan;

asar yozilgan davr ruhini aks ettiruvchi so'z va iboralar, dialektizm, arxaizm va agnonimik birliklarning agnonim-istorizm, agnonim-arxaizm, agnonim-neologizm kabi ko'rinishlari hamda ularning badiiy-estetik vazifasi *obkom, sovxoz, kvazarlar, payantak,chorpichoq* kabi misollar bilan isbotlangan xulosa va takliflardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2021–2022-yillarga mo'ljallangan PZ-2020042022 "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasi"ni yaratish bo'yicha amaliy loyiha doirasida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 07-avgustdagi 04/1-1462-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur loyihadagi nazariy fikrlar mazmuniy jihatdan boyigan;

Asqad Muxtorning "Chinor" romanida milliy ruh bilan sug'orilgan, tarixiy hamda ijtimoiy muhit ruhiyati aks etgan *chinordek, o'choqma-o'choq, Sayxun, qulog'im sizda* kabi metafora, metonimiya, sinekdoxa va o'xshatish qurilmalardan lingvopoetik maqsadda foydalanilgani ko'rsatilgan va ularning lingvopoetik tahliliga oid taklif hamda tavsiyalaridan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalida efirga uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot", "Adabiy jarayon", "Bedorlik" nomli dasturlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali" davlat muassasasining 2022-yil 15-dekabrdagi 04-36-2071-sonli ma'lumotnomasi) Natijada tadqiqotdagi ma'rifiy-ma'naviy fikrlar, ilmiy qarashlarga asoslangan xulosalar teleko'rsatuv ssenariysini mazmunan boyitgan va mukammallashtirgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, respublika miqyosida 3 ta hamda 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, 12 ta maqola shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop

etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola – 3 ta respublikada hamda 3 ta xorijiy jurnalda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan tashkil topgan, umumiy hajmi 152 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Oʻzbek tilshunosligida badiiy matn va uning tadqiqi masalalari"** deb nomlangan birinchi bobida badiiy matn va unga yondashuv masalalari, stilistik yondashuv, lingvopoetik yondashuv, lingvomadaniy yondashuv, lingvopragmatik va lingvokonseptual yondashuv xususida fikr yuritilgan.

Bobning "**Badiiy matn va unga yondashuv masalalari**" deb nomlanuvchi birinchi faslida matn tahliliga doir turli yondashuvlar, yoʻnalishlarning maydonga chiqqanligi, badiiy matn tadqiqiga dastlab faqat stilistik jihatdan yondashilgan boʻlsa, bugungi kunda tilshunoslikda lingvopoetik, lingvomadaniy, lingvokognitiv, lingvopragmatik jihatdan yondashuv urfga kirganligi, ular bilan bogʻliq ilmiy-nazariy muammolar xususida fikr yuritilgan.

Tilshunoslik badiiy adabiyot bilan uzviy bogʻliq boʻlib, bu ikki yoʻnalish bir-biridan ayro holda rivojlanmaydi. "Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli boʻlib, badiiy asarlarda qoʻllangan lisoniy birliklar (fonetik, morfemik, leksik, va boshq.) ning badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini oʻrganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqni oʻrganuvchi boʻlimidir"[9].

Oʻzbek tilshunosligida esa badiiy matnga yangicha ilmiy konsepsiyalarning olib kirilishi va yangi taraqqiyot bosqichiga koʻtarilishida, N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Mamajonov, D.Xudoyberganova, D. Lutfullayeva, M.Yoʻldoshev, M.Hakimov kabi tilshunoslarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etdi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda badiiy matn va uning tadqiqiga yondashuv masalalari yetarlicha oʻrganilmoqda.

Bobning **"Stilistik yondashuv"** deb nomlanuvchi ikkinchi faslida bugungi kunda kabi badiiy matnga stilistik yondashuv yozuvchi maqsadini ochib berishning eng keng qamrovli usuli ekanligiga urgʻu beriladi.

Tilshunoslikning tarixiga nazar tashlar ekanmiz, til va nutqning farqlanishi stilistikaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga olib kelganini koʻramiz. V.Gumboldt, I.A.Boduen de Kurtene, O.Vinokur, L.P.Yakubenskiy, V.Vinogradov kabi tilshunos olimlar nutqni oʻrganish masalasiga katta eʼtibor berdilar.

---

[9] Нурмонов А. Танланган асарлар. 1- жилд. Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 163.

M.Yoʻldoshev oʻzining dissertatsion tadqiqotida badiiy til tadqiqi yoʻnalishlariga eʼtibor qaratib quyidagicha fikr bildirgan edi: "Oʻzbek tilshunosligida badiiy asar tilini oʻrganishga bagʻishlangan ishlarda, asosan, ikkita yoʻnalish yetakchilik qilganini kuzatish mumkin. X.Doniyorov va S.Mirzayevlar tildagi oʻsish-oʻzgarishlar, adabiy til va umumxalq tili munosabatlari kabi masalalarni oʻrganishni oʻz oldiga vazifa qilib qoʻyadigan yoʻnalishni lingvistik aspekt, yozuvchining umumxalq tiliga boʻlgan munosabati, til boyliklaridan foydalanishi, yozuvchi mahorati, stili haqida xulosa chiqaruvchi yoʻnalishni esa stilistik aspekt tarzida talqin qilganlar"[10].

Oʻzbek tilshunosligida badiiy nutq stilistikasi, maʼlum bir yozuvchining asarlari tili va uslubi muammosini oʻrganishga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlar anchagina boʻlib, ularning aksariyati ilmiy yechimlarga egaligi, asoslanganligi bilan ajralib turadi. Masalan, Alisher Navoiy asarlarining tili badiiy mahorat jihatidan oʻrganilib, buyuk mutafakkirning oʻziga xos qoʻllagan lisoniy vositalarning maʼno va mazmuni ochib berilgan[11].

Badiiy asar tili va badiiy nutq stilistikasi haqida soʻz yuritar ekanmiz, P.Qodirov[12], R.Qoʻngʻurov[13], I.Qoʻchqortoyev[14], H.Abdurahmonov, N.Mahmudov[15] Q.Samadov[16], L.Abdullayeva[17], B.Yoʻldoshev[18], E.Qilichev[19], S.Karimov[20] kabi koʻplab olimlarning salmoqli ilmiy ishlarini taʼkidlash lozim.

Tadqiqotlar koʻzdan kechirilganda, badiiy tilni oʻrganishda koʻproq leksik birliklar stilistikasiga eʼtibor qaratilganligi kuzatiladi.

Bobning **"Lingvopoetik yondashuv"** deb nomlanuvchi uchinchi faslida oʻzbek tilshunosligida badiiy matnga lingvopoetik yondashuvning paydo boʻlishi va rivojlanishi hamda yondashuv shakllari masalasiga eʼtibor qaratilgan.

Rus tilshunosligida amalga oshirilgan badiiy matn tili bilan bogʻliq tadqiqotlarda V.Y.Zadornovaning ilmiy qarashlari yetakchilik qilganligi seziladi. Xususan, olimning "lingvopoetikaning maqsadi tilning u yoki bu birligini badiiy nutqdagi ifoda tarzini aniqlashdan iborat jarayon boʻlib, ijodkorning soʻz, soʻz birligi, grammatik shakl va sintaktik qurilmalardan muayyan estetik niyatga muvofiq tarzda foydalanish mahoratini aniqlash nazarda tutiladi"[21] mazmunidagi qarashlari muhim

---

[10]Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. док. дисс... –Тошкент, 2008.

[11] Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979; Каримов А. Лексико-семантические и стилистическое особенности языка поэмы «Фархад и Ширин» Алишера Навои: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1973; Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка «Лисан ат-тайр» Алишера Навои: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1982.

[12] Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент: Фан, 1973.

[13] Қўнғуров Р. Ўзбек стилистикасида очерклар. – Самарқанд, 1975.

[14] Қўчқортоев И. Бадиий нутк стилистикаси. – Тошкент, 1975.

[15] Абдураҳмонов Ҳ. Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981; Маҳмудов Н.Ўзимиз ва сўзимиз. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. – Б. 58-66.

[16] Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент, 1981; Самадов Қ. Ўзбек тили услубияти (бадиий услуб). – Тошкент: Ўқитувчи, 1991.

[17] Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. – Ташкент: Фан, 1979.

[18] Йўлдошев Б. Бадиий нутк стилистикаси. – Самарқанд, 1982.

[19] Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982.

[20] Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент, 1993.

[21] Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дисс. . д-ра филол. наук. – М., 1992. – С. 19.

hisoblanadi. Olimning badiiy matn tarkibida semantik va metasemiotik qatlamning mavjudligi [22] haqidagi qarashlari ham diqqatga molik. Bunda til birliklari semantik qatlamni, so'z mazmuni va ifoda tarzida namoyon bo'ladigan "ust ma'no"lar metasemiotik qatlamni tashkil qilishi qayd qilingan.

Lingvopoetika badiiy matn tili, shakli va mazmuni birligini, til birliklarining lingvopoetik vazifasini, badiiy qimmatini va kitobxonga estetik ta'sirini o'rganadi. Ma'lumki, estetik ta'sir faqatgina asardagi voqealarga emas, bu voqeaning ijodkor tomonidan qanday til birliklari vositasida qay tarzda ochib berilishiga ham bog'liqdir. Lingvopoetik tahlilning maqsadi ham tilning u yoki bu birligi muallif tomonidan badiiy matnga qay tarzda kiritilayotgani va uning ta'sir kuchini aniqlashdan iborat desak, xato qilmaymiz. Lingvopoetikaning asosiy o'rganish obyekti badiiy asarlar tili va ularda yashayotgan so'zlarning estetik qiymati hisoblanadi.

Badiiy asar obrazli nutqni, badiiy tilning cheksiz imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi eng muhim vosita vazifasini bajarishi bilan birga, avvalo, lingvopoetikaning muammolarini hal etadi. Lingvistika hamda adabiyotshunoslik sohalarining uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgani uchun ham yozuvchi tomonidan ifodalanayotgan sotsial axborotning lingvistik va poetik tuzilishini bir yoki bir necha shakliy paradigmada o'rganish ehtiyoji paydo bo'ladi.

Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarda yozuvchining milliy tildan foydalanish imkoniyati, ifodaning o'ziga xosligi, kutilmaganligi, ta'sirchanlik darajasi kabilarni ifodalovchi vositalar tadqiqi orqali badiiy matnning poetik butunligi va ijodkor mahorati aniqlanadi. Muallifning kommunikativ niyati va maqsadi, qahramonlarning ruhiyati va ichki kechinmalari tahlilga tortiladi.

Bobning **"Lingvomadaniy yondashuv"** deb nomlanuvchi to'rtinchi faslida zamonaviy tilshunoslikda amalga oshirilgan lingvomadaniy yondashuv asosidagi ishlarga munosabat bildirilgan.

Agar madaniyatshunoslik insonning tabiat, jamiyat, san'at, tarix va boshqa ijtimoiy va madaniy borliq sohalarida o'z-o'zini anglash xususiyatini o'rgansa, tilshunoslik tilda dunyo lisoniy manzarasining mental modellari sifatida aks etuvchi dunyoqarashni o'rganadi. Lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot predmeti esa doimiy o'zaro ta'sirlanish holatida bo'lgan ham til, ham madaniyat hisoblanadi. Yirik tilshunos olim N.Mahmudov bu yo'nalishdagi tadqiqotlar mohiyatini "Til tilsimi tadqiqi" nomli risolasida g'oyat aniq belgilab bergan: "Antropotsentrik tilshunoslik, soddaroq aytganda, markazida inson turadigan tilshunoslik mazkur haqiqatga asoslangan, shu haqiqat namoyon bo'lishining ming bitta yo'llarini ilmiy izlashga qaratilgan eng istiqbolli yo'nalishdir. Bu yo'nalishning tarmoqlaridan biri lingvokulturologiya yoki lisoniy madaniyatshunoslik bo'lib, u tilni "til – madaniyat – inson" uchligi doirasida o'rganadi, bu fan bugun keng iste'molda bo'lgan milliy ong, milliy tafakkur, milliy madaniyat, milliy ma'naviyat, milliy mentalitet, milliy xarakter kabi juda ko'plab tushunchalarning asosini til tashkil etishi, tilsiz ularning mohiyati barqaror bo'la olmasligini ochib berishni asosiy maqsad deb biladi"[23].

---

[22] Задорнова В.Я. Ko'rsatilgan diss. – B. 17.
[23] Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – Б. 167.

O'zbek tilshunosligida lisoniy madaniyatshunoslikning paydo bo'lishi va taraqqiy etishida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", "Til tilsimi tadqiqi", N.Sayidrahimovaning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar", "Lingvokulturologiyaning komponentlari" D.Xudoyberganovaning "Matnning antropotsentrik tadqiqi" nomli risola, maqola va tadqiqotlari muhim ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Bobning **"Lingvopragmatik yondashuv"** deb nomlanuvchi beshinchi faslida tilshunoslikda bu mavzuga aloqador amalga oshirilgan tadqiqotlarga munosabat bildirilgan va badiiy matnga lingvopragmatik aspektda yondashuvning istiqboli bilan bog'liq fikrlar o'rtaga tashlangan.

Lingvistik pragmatika nazariyasi xususidagi ilk ma'lumotlar tilshunoslik fanining yangi yo'nalishi sifatida o'tgan asrning 60–70-yillarida boshlangan bo'lsa-da, bu yo'nalishning paydo bo'lishiga turtki bergan g'oyalar tarixi XIX asr oxiri XX asr boshlariga borib taqaladi. Tadqiqotchilar gapdan anglashilgan mazmun bilan subyekt munosabatiga e'tibor qarata boshlaganlaridan beri pragmatika sohasining mazmun-mundarijasi shakllana boshladi. Bunday ishlarda nutqiy akt, indikativ bo'lmagan so'zlar, kontekst, nutqiy vaziyat, so'zlovchi shaxsi kabi terminlar lingvistik pragmatikaning markaziy tushunchalariga aylandi.

60–70-yillarda til belgilarining nutqdagi amaliy qo'llanishiga xos kontekstual xususiyatlarini o'rganish bilan tilshunoslikda pragmatik yo'nalish yuzaga kela boshladi. Lingvistik pragmatikaning tarmoq sifatida shakllanishi yirik olim L.Vingshteynning falsafiy qarashlari bilan bog'liq bo'lib, aynan uning ishlarida pragmatika nazariy semiotik tadqiqotning mustaqil sohasi sifatida ko'rsatib o'tiladi[24]. Taniqli tilshunos Sh.Safarov o'zining "Pragmalingvistika" nomli monografiyasida mazkur sohaning bugungi holatini quyidagicha obrazli ta'riflaydi: "Pragmalingvistika hech qanday gumonsiz "tetapoya" davridan o'tdi, ushbu soha o'z tadqiq obyektini (nutqiy muloqot tizimi) va tahlil metodlarini asosan aniqlab oldi. Pragmatik tahlil tamoyillarini belgilovchi asosiy metodologik g'oya ham aniq: bu – faoliyat nazariyasidir. Ammo pragmalingvistika hamon "navqironlik" davrida. Navqironlik esa istiqbolli rejalarga to'liqlikdir, hozircha hal etilishi lozim bo'lgan muammolardan tap tortmaslikdir. Darhaqiqat, barkamollikka intilayotgan pragmatika fani lisonning inson, jamiyat xizmatida bo'lishidagi vazifasining qanday amalga oshirilishi borasida izlanishlarni davom ettirishga majbur. Bu izlanishlar lisoniy bilim sohasidagi ushbu yo'nalishning yangi nazariy g'oyalar bilan boyitilishini talab etadi[25]. O'zbek tilshunosligida lingvistik pragmatika nazariyasiga oid bir qancha ishlar bor. Dissertatsiyada bu boradagi ishlarga munosabat bildirilgan.

Bobning **"Lingvokonseptual yondashuv"** deb nomlanuvchi oltinchi faslida lingvokognitologiya, konseptologiya, badiiy matnga lingvokonseptual yondashuv masalalariga e'tibor qaratildi.

Tilshunos Sh.Safarovning fikricha, botiniy strukturani konseptual jarayon, ya'ni borliq – predmet voqealarning idrok etilishi va ularning ongli hazm etilishi

---

[24] Петров В.В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. – М., 1985. – С.741.
[25] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008. – Б. 6-7.

jarayonida yuzaga keladigan hodisa sifatida talqin qilmoq kerak. Bu jarayonda yuzaga kelgan birlik – konsept haqiqiy ma'no birligiga aylanishi uchun u lisoniy qobiq olmog'i darkor, faqatgina lisoniy "libos" kiygan konseptgina lisoniy faoliyat vositasiga aylanadi, ma'lum mazmun ifodalovchi belgi sifatiga ega bo'ladi. Shu sababli ma'no yoki semantikani lingvokognitiv hodisa sifatida qabul qilgan ma'qulroq. Faqat shundagina kognitiv fanlar doirasiga kiruvchi fanlar, shu jumladan, psixologiya va tilshunoslik bir-biridan ajralib, ihotalanib qolishi xavfining oldini olish hamda lisoniy semantika hodisasining mohiyati-yu, voqelikka aylanishi mexanizmlarini yoritish imkoniyatini yaratish mumkin. Generativ semantika va formal-mantiqiy grammatika g'oyalarini o'zaro qarama-qarshi qo'ysak va ularning alohida birortasiga to'liq erishilganda esa lingvistikaning kognitologiyaga oid boshqa qismidan ajralib qolishi turgan gap[26].

Konsept ham tafakkur birligi. Uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug'ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo'lishi bilan tugaydi. Taniqli faylasuf va psixolog Jerri Fodor voqelikning ongda in'ikos etishi va bu in'ikosning tafakkurda "qayta ishlanish" jarayonini o'rganayotib, bu jarayonni "tafakkur lisoni"ga o'xshatadi. Chunki "har qanday mantiqiy tasavvur harakati ma'lum ko'rinishdagi strukturaga ega bo'ladi hamda bu struktura tabiiy til birligining sintaktik shakli takroriga ishoradir"[27].

O'zbek tilshunosligida ham bu borada talay ishlar qilingan. Tilshunos Y.Hojiyev tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida "Alpomish" dostonidagi birliklarning konseptual strukturasi bir necha jihatdan ochib berilgan. Bundan tashqari, tilshunos "ma'naviyat" kategoriyasining tarkibiy qismlarini ham tayanch ma'naviy konseptlar sifatida ajratib tahlil qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Chinor" romani tilining leksik-semantik xususiyatlari"** deb nomlangan. Bu bobda romanda qo'llangan leksik birliklarning o'ziga xos semantik mazmuni ochib berilgan. Bobning **"Badiiy matn tahlilida so'zning shakliy va ma'noviy turlari"** deb nomlangan birinchi faslida so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari tahlilga tortilgan. Sinonim, antonim kabi til birliklarining romandagi vazifasi va yozuvchining badiiy til mahorati haqida so'z yuritiladi.

Badiiy matn tahlilida yozuvchi tomonidan qo'llangan so'zlarning shakliy va ma'noviy munosabatlari muhim o'rin tutadi. Ijodkorlar maqsadini to'g'ri va estetik jihatdan jozibador tarzda ochib berish uchun so'zlarning doimiy iste'moldagisini emas, balki estetik bo'yoqdor shaklini qo'llashni ma'qul ko'radilar. Atoqli tilshunos N.Mahmudov sinonimlar haqidagi maqolasida quyidagi fikrni ilgari surgan: "Til birliklari orasidagi sinonimiya munosabati tilday murakkab va muhtasham tizim tarkibidagi favqulodda muhim paradigmatik munosabatlardan biri bo'lib, bu munosabatning mavjudligi mazkur tizimning takomili va taraqqiyoti darajasi bilan uyg'undir. Boshqacha qilib aytganda, tilning rivojlanganlik darajasining yuksakligini, demakki, uning zanginligi va ranginligini ta'min etadigan muntazam va betimsol

---

[26] Сафаров Ш. Ko'rsatilgan asar. – B.33.
[27] Fodor J. The Language of Thought. – Sussex, 1975.

omillardan biri unda lisoniy birliklararo ma'nodoshlik – sinonimiya munosabati imkoniyatlarining ko'lamdorligidir. O'zbek tili ana shunday qadimiy va rivojlangan boy tillardan biri sifatida salmoqli miqdordagi sinonimik munosabatlar asosida birlashgan yoki birlashadigan so'z gavharlari zaxirasiga sohib tildir."[28]

Manbalarda sinonimik so'zlar o'rtasidagi semantik aloqaga ko'p e'tibor qaratiladi. Xususan, mazkur hodisa ma'nodoshlik asosida bog'langan lug'aviy birliklarning aniq tizimidir. Xuddi mana shu aniq semantik aloqa asosida bog'langan leksik paradigmalar, o'z navbatida, yaxlit bir mikrotizimni tashkil qiladi[29].

Leksik-semantik sinonimlar – matndan tashqari ham sinonimik munosabat hosil qiluvchi so'zlar hisoblanib, ular semantik jihatdan bir-biriga mutlaq mos kelishi yoki ma'no nozikligiga ko'ra farq qilishi mumkin.Yozuvchi asarda leksik-semantik sinonimlarning o'ziga xos ko'rinishlarini tanlaydi. Masalan: *Bu sog'inish – sarg'ayish, firoq dardidir, shoh… Buning davosi ularni o'z vatanlariga qaytarishdir. Shundagina tirik qoladilar. Aks holda, qirilib ketgaylar,– dedi Al-Forobiy.*

Forobiy haqidagi ushbu rivoyatda yozuvchi davr ruhini ochib berish uchun *sog'inish* leksemasi bilan birgalikda, *sarg'ayish, firoq* ma'nodosh so'zlarini ham qo'llashni ma'qul ko'radi. Ushbu sinonimik qatordagi *firoq* leksemasi nisbatan tarixiy so'z bo'lib, hozirda badiiy asarlarda yozuvchi maqsadidan kelib chiqib ishlatiladi. Vatandan uzoqda, g'am-alam chekayotgan qullarning dardini tasvirlash uchun yozuvchi sinonimik qatordagi eng chiroyli birliklarni keltiradi. Bu o'rindagi *sarg'ayish* leksemasi ko'chma ma'noda kelgan bo'lib, kontekstda juda chiroyli tarzda sinonimik qator hosil qilgan. "Sarg'aymoq" leksemasi o'z ma'nosida ma'lum bir predmetning sariq tusga kirishi, ya'ni rangini bildirish uchun ishlatiladi. Badiiy adabiyotda ko'chma ma'noda bu *sog'inmoq* ma'nosi bilan birga ma'lum bir dardga chalinish ma'nosida ham keladi.

Badiiy asarning ta'sirchanligi va ifodaliligini ko'rsatishda zid ma'noli so'zlar muhim lingvopoetik vazifa bajaradi. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. Dissertatsiyada romanda qo'llanilgan antonimik birliklar quyidagi tasnif asosida o'rganilgan:

1.Morfologik antonimiya. Yozuvchi lisoniy butunliklar sirasida qo'shimchalar o'rtasidagi o'zaro qarama-qarshi ma'nolilik xususiyatidan ko'p o'rinlarda foydalangan. Masalan: *Lekin jussasi kichkinagina bu odam uni qayoqqadir eltish uchun jonini o'rtaga qo'yib qasam ichgandek, bolasini tishlab qochayotgan yirtqich singari bardoshli, o'ziga rahmsiz edi.* Bu misolda *-li* va *-siz* antonim qo'shimchalari orqali antiteza hodisasi yuzaga keltirilgan. Bunda asar qahramoni Onabibining eri Bozorqulni qutqarish uchun qilayotgan harakatini yozuvchi *bardoshli* va *rahmsiz* so'zlarini qo'llagan holda qahramonning ruhiy holatini ochib berishga harakat qilgan. Bunda ojiza bir ayolning eriga bo'lgan muhabbati tufayli *bardoshli* bo'lish bilan birga, o'ziga nisbatan *rahmsiz* holatda ekanligi ko'rsatilgan. Albatta, bu jumladagi antonim qo'shimchalar o'z o'rnida qo'llanib, jumlaning ta'sir kuchini oshirgan. Ushbu zid ma'noli qo'shimchalar bog'lanib kelgan so'zlarni qo'llash natijasida yozuvchi bir-biriga qarama-qarshi

---

[28] Bu haqda qarang: N.Mahmudov."Sinonimlar til zanginligi va ranginligi ko'zgusi". O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati, 1-jild.Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 5

[29] Bu haqda qarang: Сафарова Р. Лексик-семантик муносабат турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 2.

bo'lgan ikki tushunchani zidlash orqali tasvirning aniq, ravshan chiqishiga va ifoda ekspressivligiga erishgan. Lekin bir holatni nazardan qochirmaslik kerakki, *rahmsiz* va *bardoshli* so'zlari kontekstdan tashqarida antonimlik hosil qilmaydi.

2.Leksik antonimiya. Asqad Muxtorning "Chinor" romanida leksik sathdagi zid ma'nolilik ko'proq sifat, ravish va fe'l so'z turkumlari doirasida yuzaga keladi. Masalan: *To'lagan peredatchikning kalitini bosdi. Uzun-kalta, uzun-kalta "bi-bip, bi-bi-biyp"lar qator tizilib kumush g'ildirakchalarday efirga singib ketdi.*

Ushbu misolda ham yozuvchi *uzun* va *kalta* antonim juftligidan foydalangan bo'lib, bir inson hayotini qutqarish uchun harakat qilayotgan asar qahramoni To'laganning ruhiy holatini ochib berishga xizmat qilgan. Ma'lumki, *uzun* leksemasi *qisqa* leksemasi bilan zidlik munosabatini hosil qiladi. Lekin yozuvchi bu o'rinda *qisqa* leksemasini emas, balki *kalta* leksemasidan foydalangan. Albatta, Asqad Muxtorning tili xalqona va sodda ekanligini hisobga olsak, bu o'rinda ham yozuvchi antonimik juftlikni o'ziga xos usulda va chiroyli qo'llagan.

Umuman, "Chinor" romanida qo'llangan so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari asar tilining badiiy barkamol bo'lishini ta'minlagan, qahramonlar ruhiyatini keng tasvirlashga xizmat qilgan hamda yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon qilish imkoniyatini yaratgan.

Bobning **"Asardagi leksik qatlamlar ko'lami va badiiyati"** deb nomlangan ikkinchi faslida leksik qatlamlar va ularning matndagi badiiyati haqida so'z boradi.

"O'zbek tili leksikologiyasi" kitobining mualliflari o'zbek tili leksikasini iste'mol doirasiga ko'ra asosan ikki qatlamga ajratish mumkinligini bayon qilishgan:1. **Qo'llanish doirasi chegaralanmagan, umumiste'moldagi leksika.** 2. **Ma'lum doiradagina qo'llaniladigan, iste'mol doirasi chegaralangan leksika**[30]. Birinchi qatlamga o'zbek xalqining barcha a'zolari uchun umumiy bo'lgan va qo'llanilishida muayyan territoriya yoki ma'lum faoliyat sohalari bilan chegaralanmagan leksika kiritilgan.

Ikkinchi qatlamga kiritilgan birliklar manbalarda uchga bo'lib tasnif qilinadi: 1) dialektal leksika; 2) maxsus (professional-terminologik) leksika; 3) jargonlar.

Bundan tashqari, badiiy matnning lisoniy tarkibi rang-barang bo'lib, ular ichida agnonim deb ataluvchi kitobxonga bir qadar "tushunarsiz" birliklar ham kattagina qismni tashkil etadi va asarda ularning o'ziga xos poetik vazifasi bo'ladi. **Agnonimlar** qo'llanish jihatidan chegaralangan leksika doirasiga kiradigan birliklar hisoblanadi. Agnonimlar haqidagi ilmiy qarash dastlab rus tilshunosligida V.V.Markovkin va A.V.Markovkina[31] tadqiqotlarida paydo bo'ldi. Bundan tashqari agnonimlarni neologizmlar bilan chalkashtirish ko'p kuzatiladi. M.Yo'ldoshev bu masalaga ham oydinlik kiritadi: "Neologizm termini tilga kirib kelgan yangi so'zlar emas, aynan yangilik bo'yog'i mavjud bo'lgan leksemalarga nisbatan ishlatiladi. Yangilik bo'yog'i yo'qoldimi, demak, o'sha so'z odatdagi leksemaga aylanadi. Neologizmlarning "tushunarsiz"ligi o'tkinchi bo'ladi. Ma'lum bir vaqtdan keyin uning bu xususiyati yo'qoladi. Agnonimlarda esa "tushunarsizlik" doimiylik xususiyatiga ega bo'ladi. "Tushunarsizlik" quyidagi guruhlardagi so'zlarda ko'proq

---

[30] Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.11.
[31] Морковкин В.В., Морковкина А.В. Русские агнонимы: Слова, которые мы не знаем. Понятие, состав и смысловое разнообразие. – М.: 1997. 414 с.

kuzatiladi: a) Iste'moldan chiqqan leksik-frazeologik birliklar; b) iste'mol doirasi chegaralangan leksik-frazeologik birliklar; d) ma'nosi kontekst yordamida reallashadigan leksik-frazeologik birliklar"[32]. Agnonimlarni ham tilshunoslikdagi mavjud tasniflar asosida quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1. **Eskirgan leksika**. Bunda ko'pchilik kitobxonlar uchun tushunarsiz bo'lgan arxaik va tarixiy so'zlar nazarda tutiladi. Asar sobiq sovet davrida yozilgani bois sovet mafkurasini, boshqaruv tizimini ifodalovchi leksik birliklar aks etgan va ular bugungi kun o'quvchisi, ayniqsa, yoshlar uchun "tushunarsiz" birliklardir. Masalan, *obkom, sovxoz, rais, sovet, kolxoz, brigadir, Gazik, selpo, raykom, sekretar, raykom sekretari, rentabel, cho'lni o'zlashtirish, vodxoz, redaktor, plakat, sinfiy kurash, revolyutsiya, plenium.*

2. **Zamonaviy leksika**. Bu qatlamga umumiste'molda bo'lgan, biroq muayyan kasb egalarigina tushunadigan kasb-hunarga oid so'zlar va tilimizga yangi o'zlashgan so'zlar kiradi. Asarda bunday misollarni ko'p o'rinlarda uchratish mumkin. Asar qahramonlaridan Po'lat va Temir suhbatlari chog'ida **kvazarlar** ilmiy-texnik neologizmini tilga olishadi. Kitobxonga dastlab notanish tuyulgan bu so'z keyinroq atroflicha ochiqlanadi va uning agnonimlik xususiyati yo'qoladi. *Hali sen Kvazarlarni esga solding.* **Kvazarlar** *– koinot bolaligining guvohlari. Ularning milliard yillar avval yo'lga chiqqan nuri, radio to'lqinlari koinotning qaysi bir galaktikasiga endi yetib kelibdi. Ular yerga yetib kelganda ne-ne dunyolarning tarixini so'zlab berarkan! Ular so'zlaganda, biz tilini anglay olamizmi?.. Sen bo'lsang, ichburug'dan kelasan.*

3. **Hududiy chegaralangan leksika**. Dialektal leksikada badiiy matnda qo'llanilgan ayrim dialektal birliklar boshqa sheva vakillari uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda mualliflar yoki muharrirlar shunday birliklarni havolada izohlab ketishadi yoki kitobning oxirida lug'at tarzida berishadi. Agnonimlikni belgilashda shu jihatga ham e'tibor qilish mumkin: *Muyush, nachaynik. Uylar hammasi bir xil: ikki qavatli, ikkita kichkina ayvonli, ikki oila uchun. O'n qadam ichkarida* **badrafxona**. *Hammasi shunday, bir uy, bir* **badraf***, bir uy, bir* **badraf***. Boshqa hech narsa yo'q, na bir qoziq, na bir jo'yak, na bir nihol...*

Badraf va **badrafxona** agnonimi hududiy cheklangan dialektizm bo'lib, boshqa sheva vakillariga tushunarsiz so'z hisoblanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida mazkur so'z sheva ishorasi bilan "**BADRAF** [bad.. + *f.* — "bormoq" fe'lidan] *shv.* Hojat uchun boriladigan joy; "hojatxona" tarzida izohlangan. Mazkur so'zning takrorlanishi qahramonning hududga munosabatini bo'rttirib tasvirlashga xizmat qilgan.

4. **Onomastik leksika**. Ayrim **antroponimlar** ham yozuvchining izoh ehtiyojidan kelib chiqib agnonimik xarakterda bo'ladi. Dastlab mazkur matnni o'qigan paytimizda so'roq ohangida aytilgan *simyog'och* o'zining denotativ ma'nosida aytilgan "simyog'och" bilan xayolimizda jonlanadi. Biroq matnni o'qishimizda bir necha jumladan so'ng yozuvchining izohidan *Simyog'och*ning aslida laqab ekanligi anglashiladi:

---

[32] Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. док. дисс... –Тошкент, 2008. –Б.238.

– *Iya, Orif aka. Haligi... assalomu alaykum!* – *ikki qo'lini uzatdi shoshib qolgan Ergash. U novcha emasdi,* **"Simyog'och"** *laqabi unga otasidan qolgan. Otasi dong'i ketgan bog'bon bo'lsa ham, juda sodda bo'lgan ekan. Bir kuni unga bir sho'x montyor bola daladagi simyog'ochlarni sotib ketibdi. Montyor dalada elektr simi tortayotgan ekan, "Nima qilyapsan?" – debdi chol. "Simyog'och o'tqazdik, – debdi bola, yarimta ichgisi kelib qolganmi, hazillashibdi: – O'tqazdik-u, xato o'tqazib qo'yibmiz. Endi tashib ketish juda qimmatga tushadi. Sotmoqchimiz", debdi. Simyog'ochlar ham tilsa juda so'ribop ekan. Savdo ko'pga cho'zilmabdi, chol hammasini arzon-garov sotib olib, bolaga bor pulini sanab beribdi. O'shandan beri xalq orasida bularning laqabi* **Simyog'och** *bo'lib ketgan. Ergashga laqabgina emas, hunar ham ota meros.*

Xulosa qilib aytganda, asardagi leksik qatlamlar asarning xalqchilligini va badiiyatini oshirishda katta ahamiyat kasb etgan.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli **"Yozuvchi ijodida ko'chimlarning lisoniy va poetik tabiati"**deb nomlanadi. Ma'lumki, so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash dastlab, lug'atlardagi so'zlarning ma'no jihatdan kambag'alligidan kelib chiqqan bo'lsa, asta-sekin go'zallik va jozibadorlikka bo'lgan ehtiyoj ularning ma'nolarini kengaytira boradi, bu esa xuddi kiyim dastavval sovuqdan himoyalanish vositasi sifatida vujudga kelgan bo'lib, keyinchalik esa kishi tanasini bezaydigan libosga aylanganiga o'xshaydi[33].

Tilshunos N.Mahmudov metaforani dunyoni bilishning eng qudratli qurollaridan biri deb ta'kidlaydi[34]. Chunki dunyoni anglash murakkab sinkretik hodisa hisoblanadi. *Qorong'i* degan leksema bor, lekin hodisa ma'nosida borliqning bunday qismi mavjud emas. Faqatgina nurning yetib bormagan qismlarigina qorong'i degan nom ostida umumiylashtiriladi. *Zulmat* so'zi ham qorong'ilikni ifodalaydi, biroq semantik jihatdan kengayib, *qullik, asorat, qiyinchilik, azob, iskanja* kabi ma'nolar bilan aloqa hosil qiladi. Metaforalar ana shunday murakkab hodisalarni anglashda qulaylik yaratuvchi beminnat vositalar hisoblanadi. Bir insonning o'taketgan ayyorligini, insoniy me'yorlar tashqarisiga chiqqanligini, axloq qoliplariga sig'masligini alohida so'zlar bilan ifodalash kerak bo'lsa, juda ko'p so'z va vaqt sarf qilinadi, biroq *tulki* zoomorfik metaforasi orqali bu salbiy xususiyatlarning barchasini aniq, lo'nda va obrazli qilib ifodalash mumkin. Shuning uchun ham metaforalar qudratli vosita hisoblanadi. M.Yo'ldoshev metaforaning mohiyati haqida so'z yuritib quyidagi fikrni ilgari suradi: "Metaforaning asosiy mohiyatini o'xshatish, qiyoslashdan iborat mantiqiy amal tashkil etadi"[35]. Darhaqiqat, metaforaning yuzaga kelishida o'xshatish, qiyoslash bilan birga mantiqiy xulosalash muhim sanaladi. Mantiq tarozisida tortilmagan hech qanday qiyoslash yoki o'xshatish metafora deb ataluvchi murakkab tasviriy vositaga doxillik talab qilolmaydi. *Nayzaga kelgan oftob mashinaning oldingi oynasida charaqlab, ko'zni oladi, ro'paradan esgan issiq shabada yuzlarni yalaydi. Bu – ulug'* **sahroning etagi** *edi, ufqlar sarg'ish, garmsel ham o'shaniki.* Bu o'rinda *etak* metaforasi sahroning boshlanish qismi ma'nosini konkretlashtirish uchun ishlatilgan. Asarning metaforik tizimi rang-barang bo'lib,

[33] Античные теории языка и стиля. – М., 1936.
[34] Махмудов Н. Термин, образли сўз, метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. – № 4. – Тошкент, 2013. – Б. 5.
[35] Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 67.

ba'zan o'z va ko'chma ma'no bir o'rinda aloqalantiriladi va metaforaning kuchini yanada orttiradi. Masalan, *Tabib chaqirdilar, bu juda qadimiy, qush burun, shafqatsiz bir kampir edi. "Ahvoli yomon, homilasi ikki-uch oyligida **og'ir yuk** ko'tarib qo'yibdi", dedi u. Bozorqul boshini ushlab yerga o'tirib qoldi. "**Og'ir yuk**" – uning o'zi edi. Umuman, u bu dunyoda keraksiz **og'ir yuk** bo'ldi, xolos.*

Yozuvchining mahorati shundaki, Bozorqul xarakteridagi salbiy holatlarni, shafqatsizlikni, hamiyatsizlikni *og'ir yuk* metaforasi orqali matnga singdiradi. Bunda *og'ir* so'zi shunchaki *yengil* so'zining zidi emas, balki *zararli, keraksiz, ortiqcha* kabi ma'nolar bilan to'yingan salbiy xususiyatlarni o'zida jamlab *yuk* so'zini yanada "og'irlashtirgan". Matnda kampir nutqidagi **og'ir yuk** birikmasi o'z o'rnida qo'llangan bo'lsa, qo'shtirnoq ichida berilgan *og'ir yuk* to'g'ridan to'g'ri Bozorqulga qaratilganligini ifodalaydi. Umumlashtiruvchi jumladagi metaforik tarzidagi birikma esa Bozorqulga ishora qiladi.

Asqad Muxtorning "Chinor" romanida ham yangi ma'noning yuzaga kelishi, ya'ni metonimiya va sinekdoxaning bir necha xil turlarini kuzatishimiz mumkin. Metonimiya va sinekdoxa kabi ko'chimlar dunyoning lisoniy manzarasini tasvirlashda muhim vositalar hisoblanishi ma'lum. Metonimiya va sinekdoxa ma'nosininng mohiyati kitobxonning bilim va saviyasiga bog'liq holda anglashilish darajasi ham farqli bo'ladi. Har bir xalqning madaniy va tarixiy an'analari dunyoga qarash tarzi tajriba va ko'nikmalari shaxsning tayyorgarlik darajasi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan: *Hatto guzar, undagi katta, gavjum choyxona haqida gap ketganda ham, "**Chinor**da chaqchaqlashib keldik", "**Chinor**ga borib bir osh qilaylik", deyishadi.* Ushbu misolda **chinor** leksemasi metonimiya hodisasini shakllantirgan bo'lib, asar nomi va asardagi voqealar chinor daraxti haqidagi rivoyat bilan aloqalantiriladi. Adib bu o'rinda *chinor* fitonimi asosida metonimik konseptualizatsiya yaratishga harakat qilgan, ya'ni bu asarda chinor ko'chma ma'noli so'z bo'lishi barobarida mukammal konsept darajasiga ko'tarilgan. Birinchidan bir sulola taqdiri – shajara daraxtga asrlik chinor bilan aloqalantirilsa, chinor tevarak-atrofda yashovchi aholining hayotga bo'lgan ishonchini ifodalovchi, yashash tarzini umumlashtiruvchi motivativ birlik hisoblanadi. Chinor tabiatan kuchli daraxt, ya'ni uzoq yillik daraxt, *"qush va qumursqalarga vatan"* daraxt, soyasi insonlarga huzur bag'ishlaydigan daraxt. Shu bilan birga shoxlari mo'rt daraxt. Asarda chinor bilan aloqalantirilgan oilaning hayot davrida turli mo'rtliklarning, uzilishlarning kuzatilishi, ammo, har doim purviqor turishi asar uchun juda muhim, juda kuchli nomga aylangan.

Zal guvulladi. *Shuman qo'lini yoyib, yelkasini qisar, "Ishlab chiqarish majlisimi bu, ilmiy kengashmi?" der edi baland ovoz bilan yonidagilarga.*

Asardagi qahramonlardan biri yosh tadqiqotchi Matniyozning qari professor Shumanga qarata aytgan fikrlaridan ta'sirlangan zaldagi odamlarning holatini tasvirlash jarayonida adib metonimiyaga murojaat qiladi. Misoldagi *zal* leksemasi orqali zaldagi odamlar nazarda tutilgan. Lisoniy tejamkorlik asosida yuzaga chiqqan mazkur metonimiya yoyiq holda berilganida *guvulladi* so'zining ta'sir doirasi cheklangan bo'lar edi. *Guvullamoq* fe'li harakati oniydan, birdan paydo bo'ladigan harakat-holat uchun ishlatiladi. Birdaniga paydo bo'ladigan holat uchun metonimiya "faoliyat muhitini yaratishga xizmat qilgan". Shu tarzda qisqa, lakonik ifoda

o'quvchini noma'lum voqelikka tez tayyorlash imkonini beradi. Bunda adib kitobxonning mazkur metonimiya bilan aloqador potensial bilimga egaligini hisobga oladi. Umuman, metonimiya eng yorqin, lingvistik badiiy tasvir vositalaridan biri hisoblanadi. Kitobxonning potensial imkoniyatlaridan foydalangan holda uning bilim tajriba va ko'nikmalar doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Kitobxonning metonimik qoliplardan, metonimik ko'chimlardan xabardorlik darajasi uning milliy etnik xususiyatiga, fikrlash darajasi va saviyasi bilan bog'liq bo'ladi. Metonimiya, sinekdoxa yoki metafora kabi ko'chimlar muayyan ma'noda tafakkur usullari va hosilalari sanaladi. Bu ayni paytda, fikrni shakllantiruvchi, ma'lumotlar bazasini kengaytiruvchi tilning behad muhim tasviriy vositalaridir.

Tilshunosligimizda o'xshatishlar bo'yicha juda ko'p tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada turkologiyada birinchi bo'lib o'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati[36] yaratilganliginini alohida e'tirof etish mumkin. N.Mahmudov o'xshatishlar bo'yicha yangi va asosli gaplarni ilgari surgan katta tilshunoslardan biridir. Olim milliy tafakkurda o'xshatish-qiyoslash mexanizmlarining o'rni haqida shunday fikrni ilgari suradi: "Insonning dunyoni bilishida o'xshatish – qiyoslash benihoya katta o'rin tutadi. Bu behad mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda o'z aksini topadi"[37]. Asqad Muxtorning "Chinor" romanida o'xshatishlar predmet, voqea, harakat yoki holatni obrazli tasvirlash, unga tinglovchining e'tiborini tortish ehtiyojidan kelib chiqqan. Asqad Muxtorning "Chinor" romanida qo'llangan o'xshatishlar ijodkorning badiiy uslubini aniq namoyon qiluvchi birliklar hisoblanadi. Adib an'anaviy o'xshatishlardan shu darajada mahorat bilan foydalanadiki, mavjud, hammaga tanish o'xshatishlar ohorli mazmun bilan boyitiladi. Natijada asarning ta'sirchanligi sezilarli darajada oshadi.

Asarda eng ko'p o'xshatish obyekti sifatida "*chinor*" leksemasi kuzatiladi. Bu, albatta, asarning ma'no zanjirini bog'lashga, kitobxonning chinor bilan bog'liq fikrlarini boyitishga xizmat qiladi. Yozuvchining badiiy maqsadi asar voqelarining chinor atrofida jamlanishiga qaratilganligi bois, tasviriy vositalarning barchasida *chinor* bilan aloqadorlik aniq sezilib turadi. Zero, Ochil buvaning chinorga qiyoslanishi ham bejiz emas, hayotini Chinorqishloqda boshlagan, yoshlik damlarini chinor ostida o'tkazgan bir insonning taqdiri, xuddiki, unga o'xshab ketgandek.

Dissertatsiyaning ikkinchi bob to'rtinchi qismi "**Frazeologik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlari"** deb nomlangan bo'lib, bu faslda paremik birliklar va ularning romandagi poetik jihati ochib berilgan. Ma'lumki, frazeologizmlar fikrni obrazli, ixcham va qisqa ifodalashga xizmat qiladi. Badiiy asarlarda frazeologik iboralardan voqelikni obrazli tasvirlash, uni kitobxon ko'z o'ngida aniq va to'la gavdalantirish maqsadida foydalaniladi. A.Mamatov ta'kidlaganidek, frazeologizmlar "u yoki bu xalqning yashayotgan joyining tabiati, iqtisodiy tuzumi, tarixi, madaniyati, hayot tarzi, og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, fani, urf-odati, dini kabilar bilan bog'lanadi"[38].

---

[36] Маҳмудов Н., Худайберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.

[37] Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти,. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 19-24.

[38] Маматов А. Ўзбек тилида фразеологик ибораларнинг шаклланиш масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1994. – № 4-6. – Б. 50.

Shu boisdan ham yozuvchilar iboralardan badiiy adabiyotda lingvopoetik vosita sifatida foydalanadi, badiiy asarlar tilini jonlantiradi, kommunikativ niyat ta'sirchan vosita ko'magida voqelantiriladi, obraz va qahramonlar nutqida iboralarni qo'llash orqali xarakterni shakllantiradi.

*"Chinor bilan yolg'iz qolib, astoydil ixlos bilan **quloq solsangiz, siz ham uning asriy xayollarini eshitganday bo'lasiz"*. Bu o'rinda *tinglamoq, eshitmoq* fe'llarining o'rniga *quloq solmoq* iborasining qo'llanishi maqsadga muvofiq kelgan. Chunki *eshitmoq* fe'lida oniylik va aniq vaqt tushunchasi sezilib turadi. *Tinglash* so'zida ham shu fe'l anglatgan jarayonning muvaqqatligi ma'lum muddat bilan aloqalantiriladi. *Quloq solmoq* esa muayyan maqsad bilan nisbatan uzoqroq eshitib turish jarayonidir. Parchadan ham sezilganidek, *astoydil* so'zi buni yanada kuchaytiradi. Yozuvchining ichki maqsadi chinorni his qilish, uni odam sifatida qabul qilish va anglashga chaqirishdan iborat bo'lib, *astoydil quloq solish* birikmasi ana shu ichki niyat bilan kuchli aloqadorlik hosil qiladi.

*"...Chinorday odam ekan!" deb bir karra **hayrat barmog'ini tishlamog'i bor"**. Mazkur jumlaning e'tiborni tortadigan yana bir jihati shundaki, *hayrat barmog'ini tishlamoq* iborasi bevosita o'xshatish qurilma bilan zich aloqalantirilgan. *Chinor* etaloni asarning butuni uchun asos bo'lgan predmet bilan birga tasavvur qilinadi. Bu yerda "chinor insonni hayratlantirdi", "inson chinordek hayratlanarli" mazmuni birga tasavvur qilinadi va kuchli ta'kid oladi. Umuman olganda, frazeologik birliklarining adib ijodida o'rni beqiyos bo'lib, u o'zbek yozuvchisining voqelikni idrok etish tarzini ko'rsatish bilan birga, matn ta'sirchanligining ortishiga, o'quvchining badiiy-intellektual tafakkurining o'sishiga xizmat qilishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning uchinchi bobi **"Chinor romani tilidagi sintaktik birliklar lingvopoetikasi"** deb nomlanadi. Ushbu bobning **"Badiiy matnda qo'llanilgan imperativ va interrogativ qurilmalarning lingvopoetik xususiyatlari"** deb nomlangan birinchi faslida asarda qo'llangan so'roq va buyruq konstruksiyalar lingvopoetik jihatdan tahlil qilinadi.

Imperativ va interrogativ birliklar odatda og'zaki nutqning voz kechib bo'lmaydigan birliklari hisoblanadi. Nutqimizda bunday birliklardan ko'p foydalanamiz. Badiiy nutqda ham og'zaki nutqqa xoslikni ta'minlash maqsadida buyruq va so'roq qurilmalaridan keng foydalaniladi. Romanda qahramonlar nutqida imperativ va interrogativlar ularning ruhiyatini aks ettirishda, voqealar rivojini to'la bayon qilishda va matnni shakllantirishda muhim vosita sanaladi. Yozuvchi qahramonlarning hissiyotlarini va so'zlovchiga munosabatini ifodalashda bunday birliklardan unumli foydalanadi. Romanda juda oddiy jumlalarda ham darak, undov, so'roq qurilmalarning kombinatsiyali ishlatilishi orqali tasvirning murakkablashtirilganligi kuzatiladi. Sodda jumlalar tarkiban emas, mazmunan murakkablashgan bo'ladi. Masalan: *– Gapingiz to'g'ri. Lekin nima qilish kerak? – Bilmayman! – dedi Orif aka shartta kesib*. Parchada keltirilgan gap bir qarashda juda oddiy gap. Dastlabki gap *Gapingiz to'g'ri* – tasdiq mazmunini anglatgan darak gap; *Nima qilish kerak* – so'roq gap; *Bilmayman* – inkor ifodalovchi his-hayajon gap.

Yana bir misol: *Katta peshlavha[39]ga yozib, butun xalqqa pesh qilib qo'yibsiz, "Deputatlar xonasi" deb! Menga tushuntiring-chi, nimaga? Vokzal boshlig'i haqiqatan ham bu haqda hech o'ylamagan ekan, tushuntirib berolmadi. – Deputat hamma qatori zalda kutsa, ko'z tegib qoladimi? Yo chipta ololmaydimi? Xalq boshqa-yu, deputat boshqa ekan-da? Yo u xalqni kamroq ko'rishi kerakmi? Uni kim saylagan o'zi?* Agar dastlabki replika undov va so'roqlar emas, oddiy darak gap tarzida shakllantirilganida vaziyat bu tarzda tus olmagan bo'lar edi. Orif aka voqelikka munosabatini dastlab keskin tarzda ifodalaydi. Shu bois undov belgisi uning kayfiyatidan darak beradi. Ortidan so'roq gapning kelishi interrogativ vaziyatni tayyorlaydi. Kitobxon ham, tinglovchi vaziyatidagi asar qahramoni ham so'roqning javobiga qiziqa boshlaydi. So'roq qaratilgan shaxs, ya'ni vokzal boshlig'i taraddudga tushadi. Tushuntirib berolmaydi. So'zlovchi, ya'ni Orif aka esa qatorlashgan yoki zanjirsimon so'roq gaplar orqali fikrini istehzoli ifodalaydi: – *Deputat hamma qatori zalda kutsa, ko'z tegib qoladimi? Yo chipta ololmaydimi? Xalq boshqa-yu, deputat boshqa ekan-da? Yo u xalqni kamroq ko'rishi kerakmi? Uni kim saylagan o'zi?*

Bu qadar so'roq gaplarning qatorlashgan holda berilishi yuqoridagi so'roq vaziyatini hosil qiluvchi gap bilan bevosita bog'liq. Qahramon noto'g'ri bir holatning sababini so'raydi. Qoniqarli javob ololmaganidan keyin masalani yanada oydinlatish uchun beshta ketma-ket so'roq gapni keltiradi. Vokzal boshlig'ining javobi bu savollar qarshisida yanada chorasiz qoladi.

Badiiy matndagi imperativ qurilmalarda eng ko'p kuzatiladigan xususiyat quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. **Ta'kidga asoslangan kommunikativ funksiya**. Bunda tinglovchiga nimanidir ta'kidlash, buyurish, yo'naltirish, iltimos, taklif, da'vat kabi kommunikativ maqsadli vazifa yuklangan bo'ladi.

2. **His-tuyg'ularga asoslangan ekspressiv funksiya.** *Shunda u chor atrofga, butun tabiatga xuddi xo'jayinday nazar tashlaydi, tog'lar orqasidagi qora bulutlar, uzoqda yilt-yilt etgan chaqmoqlar bilan senlab gaplashadi:* **Qo'y endi, tongni qiynama, tong otib olsin!**

Keltirilgan misolga e'tibor berilsa, gap mazmunidan bir shaxsning ikkinchi shaxsga qilayotgan buyruq gapini kuzatgandek bo'lamiz. Ammo bu jumlada asar qahramoni Ochil buvaning tabiatga qilayotgan murojaati, tongning otishiga qarshilik qilmoqchi bo'lgan chaqmoqqa iltimos mazmuni bilan birga buyruq gap ifodalangan. *Qo'y endi* birikmasi orqali iltimos mazmuni yetakchilik qilgan bo'lsa, gapning davomidagi *qiynama* bo'lishsizlik formasidagi fe'lning imperativ qurilmani shakllantirishda o'z o'rni bor.

Bobning "**Asar tilida takrorning badiiy-uslubiy xususiyatlari**" deb nomlangan ikkinchi faslida takrorning badiiy matndagi o'rni va poetik xususiyatlari or'ganilgan. Yozuvchi Asqad Muxtor til paradigmasining mazmuniy-tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan hamda uning asarlarida keng qo'llanilgan ekpressiv-sintaktik vositalardan biri bu – takror bo'lib, ishda adib asarlarida voqelanuvchi mazkur vositaning lingvopoetikasi tahlilga tortiladi. Asqad Muxtor badiiy

---

[39] Dastlabki nusxada *vivestka* tarzida berilgan.

takrorlardan asarlarida tilining obrazli, ta'sirchan, original hamda yuksak badiiyat talablariga javob beradi.

Asardagi bir peyzaj tasvirida ketma-ket bir xil tarzda *dasht, cho'l* so'zlarining takrorlanishi birxillikni va zerikarli manzarani ta'kidlashga xizmat qilgan. Takrorlanuvchi birliklar har doim ma'noni kuchaytirib takidlashga yoki davomiylikka ishora qilishga va turli aloqadorliklarni ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Mazkur parchalarda birxillkdan zerikish ma'nosi sezilib turadi. Bunda tinish belgilarning ham alohida o'rni bor. Misol: – *Komissiyamisiz, aka, yozing. O'tgan safar ham bittasiga ancha gap aytuvdim, muxbir ekan, gazetaga hamma gapimning teskarisini yozib chiqdi. Yozing siz ham! Lekin bir narsani ayting:* **bugun – dasht, shamol, ish**; *ertaga –* **dasht, shamol, ish**; *indinga –* **dasht, shamol, ish...** *Bu nima, yashash shuning o'zimi? Keyin nima bo'ladi, xo'sh?...* Bu misoldagi *dasht, shamol, ish* so'zlarining temporal birliklar bilan takrorlanishi zamonning har qanday kesimida makonning, hodisaning va insoniy faoliyatning o'zgarmay qolishiga ishora qiladi. Bu esa rivojlanmasdan, taraqqiy etmasdan bir joyda to'xtab turish va birxillikdan zerikish ma'nosining ta'kidli ifodalanishiga xizmat qilgan. So'zlardagi shovqinli sirg'aluvchi *sh* tovushining takrorida ham muhitdagi umumiy shovqinga ishora qiladigan vosita sifatida mohirona foydalangan.

Asarda Mirzacho'l tasviriga katta o'rin ajratilgan. Cho'lni o'zlashtirish, cho'lni obod maskanlarga aylantirish o'sha davrning ustuvor siyosatlaridan biri edi. Muallif yoki qahramonning cho'lga munosabatida ham bu masala sezilarli. Bir o'rinda cho'l shunday tasvirlanadi. *Lekin oldinda hech narsa yo'q edi. Cho'l, cho'l, cho'l... Bir giyoh dardida yongan o'sha cho'l. Ne-ne karvonlarni yutib ketgan o'sha o'lik cho'l. Katta cho'l, Mirzacho'l.*

E'tibor berilsa, ilk jumlada oldinda hech narsa yo'q. Demak, hayot asari yo'q. Cho'l ana shunday hayot asari bo'lmagan poyonsiz hudud sifatida ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Adib bu yaknavlikni cho'l so'zining takrori orqali yanada aniq tasvirlaydi. *Cho'l, cho'l, cho'l... Uning lovullab, tandirdek qizib turishini bir giyoh dardida yonayotgan cho'l,* deya tasvirlaydi. *Cho'lning poyonsizligi, mashaqqatini ne-ne karvonlarni yutib ketgan o'sha o'lik cho'l."* deya izohlaydi va xulosalovchi jumlada ham adibning cho'lga yuklagan juda katta dardi aks etadi. Katta cho'l, Mirzacho'l. Bir qarashda cho'l detallashtirilgan holda tasvirlanayotgandek ko'rinadi. E'tibor berib qaralsa, yozuvchi cho'lni gradatsiya usulida tasvirlayotganligi anglashiladi. Gradatsiya usuli she'riyatdagina emas, nasrda ham emotsional-ekspressivlikni tugal ifodalash imkonini beruvchi muhim tasviriy vosita hisoblanadi.

Mazkur bobning **"Chinor" romanida intertekstuallikning ifodalanishi** deb nomlangan uchinchi faslida badiiy matnni tahlil qilish tamoyillaridan biri intertekstuallik va uning badiiy matndagi o'rni haqida soz' boradi. Matn tilshunosligi bilan bog'liq tadqiqotlarda intertekstuallik hodisasi badiiy matnni shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida tilga olinadi. So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida ham bu hodisa keng o'rganilmoqda. Xususan, M.Yo'ldoshevning "Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasining 2.2-fasli "Badiiy matnning mazmuniy turlari va intertekstuallik" deb nomlangan. Olim bu faslda

intertekstuallik badiiy matnning tarkiblanishidagi muhim nuqtalaridan biri ekanini qayd etadi[40].

Tilshunos M.Homidova oʻzining "Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik" nomli dissertatsiyasida intertekstuallik hodisasini filologik fenomen sifatida talqin qiladi va J.Jenettdan olgan iqtibosi asosida matnlararo aloqani besh turga boʻlib oʻrganilganligi haqida maʼlumot beradi.[41] Masalan: *Ular yana 3 soat yoʻl yurdilar yoʻl yursalar ham moʻl yurdilar.*

Maʼlumki, *yoʻl* xalq ogʻzaki ijodida, xususan, ertaklarda murakkab konseptual maʼnolarni oʻzida mujassam qiladi. Ertaklarda qahramonlarning safarga otlanishi, uzoq yoʻl yurishi aynan "yoʻl yursa ham, moʻl yurmoq" tarzidagi pretsedent qolip asosida ifodalanadi. Shuningdek, *Ular yana uch soat yoʻl yurdilar* gapi folklor matnlaridagi uch mistik raqamiga ham ishora qiladi. Xususan, **uch ogʻayni botirlar, uch boshli ajdarho, uchta yoʻl** va hokazo. Mifologemalarda uch noaniq miqdorni, noaniq uzunlikni, noaniq makonni ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur jumlaning davomida yana shu mifologema kengroq ochib beriladi.

Xulosa qilib aytganda, "Chinor" romanida qoʻllangan intermatnlar oʻziga xosligi va asardagi estetik vazifasi bilan alohida oʻrin egallaydi. Asarga kiritilgan rivoyatlar, folklorizm matnlar va qissalar asarga estetik qiyofa bagʻishlaydi.

Bobning "**Paranteza va uning romanda qoʻllanilishi**" deb nomlangan toʻrtinchi qismida parantezalarning romandagi oʻrni va asarga qoʻshimcha maʼno yuklab, asarni boyitib kelgani haqida soʻz boradi. Parantezalar badiiy matnda koʻproq umumiy nutqqa qoʻshimcha izohlar kiritish uchun ishlatiladi. Romanda muallif yoki qahramon nutqida qoʻllanilgan parantezalar gapda aytilayotgan asosiy fikrga qoʻshimcha izohlar berish uchun qoʻllanilganini kuzatishimiz mumkin. Qavs bilan ajratilgan parantezalarda fikriy alohidalik aniq sezilib turadi, chunki qavs tinish belgisining oʻzi bevosita shunga ishora qiladi. Masalan, quyidagi parchada ikki xil fikr chizigʻi bitta jumla tarkibida berilganligini sezish qiyin emas: *Uchinchi kuni kechasi Madumar boshliq kimlardir kelib, (Ochil bu latta-puttaga oʻralgan, yara-chaqa, eti suyagiga yopishgan odamlarni tanimadi ham), birpas indamay turib, yana ketishdi, achinishyaptimi, gʻazabmi – bilib boʻlmasdi.* Yaʼni asosiy jumlaning mazmunida anglashiladiki, tunda Madumar boshliq bir necha kishi kelib ketishadi. Birpas indamay turib ketishadi. Parantezada bir hududda latta-puttaga oʻrangan, eti suyagiga yopishgan, yarali chaqali insonlar yotganidan xabar beriladi. Bu ikki alohida fikrni bir jumlaga joylashdan asosiy maqsad shundaki, kelib ketuvchi kishilar nega kelganligi, nega birpas jim turganliklarini yanada aniqroq ifodalash zarurati mavjud edi. Parantezada berilgan fikr bayon qilinmaganda edi, asosiy jumlaning maʼnosi yetarli darajada ochiqlanmay qolgan boʻlar edi. Yoki kengroq matn tuzishga ehtiyoj sezilgan boʻlar edi.

Orif aka shuncha yoʻllar, shuncha ellar kezib, na oʻz yurtimizda, na Yevropa mamlakatlarida Shivilgʻonday goʻzal togʻ qishlogʻini uchratoldi. Sobiq Koʻyki tumanida ("Sobiq"! Negadir uni "sobiq" qilib qoʻyishibdi!) har bir kichkina

---

[40] Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 129-154.

[41] Ҳомидова М. Бадиий матн персепсиясида интертекстуаллик: Филол. фан. ... фалсафа д-ри (Phd) дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 17.

qishloqning ham o‘ziga xos chiroyi, o‘ziga xos fazilati bor. Quyidagi parchada paranteza qahramonning ichki nutqini ham parallel aks ettirishga xizmat qilgan. Agar mazkur paranteza qo‘llanilmaganda edi *Ko‘yki tumani* birikmasidan oldin *sobiq* so‘zi e’tiborni tortmagan bo‘lar edi. Qahramonning ichki nutqida *nega sobiq* deb yozilganiga e’tirozi va isyoni seziladi. Busiz qahramonning ichki dunyosida kechayotgan g‘alayonlarni, voqelikka munosabatini ham aniq ilg‘ab bo‘lmas edi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, badiiy nutqda paranteza deb ataluvchi hodisaning ham alohida o‘rni bor. Qavs ichida berilgan gaplarning yoki kiritma konstruksiyalarning bir qator vazifalari bo‘lib, shulardan asosiysi gapdagi fikrga qo‘shimcha tariqasida yo‘l-yo‘lakay yangi fikr yoki qo‘shimcha ma’lumotlarni ifodalashdan iboratdir. Shuningdek, bu kabi birliklar badiiy matnning sintaktik va struktural jihatidan murakkablashuvini ta’minlaydi. Asqad Muxtorning "Chinor" romanida parantezalar ko‘p qo‘llanadi va ular umumiy badiiy niyatning tugal ifodalanishiga xizmat qiladi.

XULOSA

1. XX asrda badiiy matnga yondashuv masalasi tilshunoslikning eng dolzarb masalasi sifatida kun tartibiga chiqdi. Dastlabki tadqiqotlarda badiiy matn stilistik xususiyatlarga ko‘ra tadqiq qilingan bo‘lsa, keyinroq badiiy matnga lingvopoetik, lingvomadaniy, lingvokonseptual yondashuvlar faollashdi. Bu borada olib borilgan dissertatsion tadqiqotlar natijasida o‘zbek tilshunosligining lingvopoetika, lingvokulturologiya, lingvopragmatika va lingvokognitologiya tadqiqot sohalari rivojlandi.

2. A.Muxtorning "Chinor" romanida so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlaridan unumli foydalanilgan. Natijada badiiy matnning emotsional-ekspressivligi sezilarli darajada ortgan. Ko‘zlangan maqsad o‘quvchiga tez va yanada oson yetkazilgan. Bunday birliklardan tasvirlanayotgan obrazlar mohiyatini ochishda muhim poetik vosita sifatida foydalanilgan. Ayniqsa, qahramonlar ruhiyatining tugal tasvirlanishiga xizmat qilgan. Asarda leksik ma’nodoshlik ikki turga bo‘lib o‘rganildi: 1. Leksik-semantik. 2. Kontekstual sinonimiya. Yozuvchi leksik-semantik sinonimiya va antonimiyadan katta mahorat bilan foydalanish bilan birga kontekstual sinonimiya va antonimiyadan ham unumli foydalangan. Bu borada asardagi *sog‘inmoq, sarg‘aymoq, firoq* kontekstual sinonimlar tahlilidan ko‘rinadiki, yozuvchi qahramonlar ruhiyatini tugal tasvirlashda so‘zlarning mushtarak ma’noviy qirralarini teran his qiladi va mahorat bilan foydalangan.

3. Asqad Muxtor asarlarida zid ma’noli so‘zlar vositasida matnning ta’sirchanligi oshirilgan hamda yozuvchining badiiy niyati aniq va yorqin tasvirlangan. Ko‘zlangan maqsad o‘quvchiga yanada tez va oson yetkazilgan. Antonimlar ko‘magida voqea-hodisalarni o‘zaro zid tarzda qo‘llash, obrazlar mohiyatini ochish adib uslubining o‘ziga xos jihati ekanligi yoritilgan.

4. Yozuvchi o‘z asarlarida tilimizdagi ma’nodosh so‘zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so‘zni topib qo‘llagan, shu tarzda qahramonlari ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarini ham real ko‘rsatib bergan. Adib o‘z asarlarida voqelikka ijobiy yoki salbiy munosabat

ifodalashda unga mos ma'nodosh birliklarni mahorat bilan qo'llay olgan. Ijodkor bir tushunchani ifoda etuvchi sinonimlar qatoridan nazarda tutilgan ma'no va his-tuyg'uni ifoda eta oladigan so'zni topib, undan o'rinli foydalangan.

5. Adibning "Chinor" romani leksik qatlamlar jihatidan nihoyatda boy va rang-barang. Asarda chegaralangan leksik birliklardan shevaga oid so'zlar, arxaizm, istorizm, varvarizm, sovetizm va agnonimik birliklar yozuvchining badiiy niyatini yoritishga xizmat qilgan va asarning lingvopoetik qimmatini oshirgan. Bu borada asarda qo'llanilgan sovetizmlar roman yozilgan davr ruhiyatini teran anglash imkonini bersa, dialektizmlar asar qahramonlarining dialektal ko'lamini belgilashga imkon beradi. Roman tilida qo'llangan agnonimik birliklar umumiy jihatlariga ko'ra quyidagicha tasnif qilindi: 1. Eskirgan leksika. 2. Zamonaviy leksika. 3. Hududiy chegaralangan leksika 4. Onomastik leksika. Bular ham o'z ichida agnonim-istorizm, agnonim-arxaizm, agnonim-neologizm kabi ko'rinishlarni namoyon qiladi.

6. Roman tilining lingvopoetik qimmatini belgilovchi muhim vositalardan biri ko'chimlar hisoblanadi. Romanda metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya kabi ko'chimlardan keng foydalanish orqali tasvirning tiniqligi va ta'sirchanligiga erishilgan. Romandagi ko'chimlar asar badiiyatinigina emas, yozuvchining tildan foydalanish mahoratini ifodalovchi muhim birliklar ekanligi bilan diqqatga molik. Asardagi metafora va o'xshatish konstruksiyalar uning o'ziga xosligi va ohorliligini ta'minlovchi vositalar hisoblanadi.

7. Frazeologik birliklar asar tilining jonli, obrazli va ta'sirchan ifodalanishiga xizmat qilib, voqelikni badiiylashtirishda, epik turga xos syujetning poetik xususiyatini kitobxon tafakkurida obrazli ifodalanishida yetakchi lisoniy vositaga aylangan.

8. Imperativ va interrogativ birliklar odatda og'zaki nutqning voz kechib bo'lmaydigan birliklari hisoblanadi. Badiiy nutqda ham og'zaki nutqqa xoslikni ta'minlash maqsadida buyruq va so'roq qurilmalaridan keng foydalaniladi. Romanda qahramonlar nutqida imperativ va interrogativlar ularning ruhiyatini aks ettirishda, voqealar rivojini to'la bayon qilishda va matnni shakllantirishda muhim vositalar sanaladi. Yozuvchi qahramonlarning hissiyotlarini va so'zlovchiga munosabatini ifodalashda bunday birliklardan unumli foydalanadi. Romanda yozuvchining badiiy niyati undov va so'roq qurilmalarning kombinatsiyali qo'llanilishida aniq aks etadi. Bunday qurilmalar matnning ko'pqatlamliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

9. Nasrda takrorlanuvchi so'zlarning bir necha vazifasi bo'ladi. Ular ichida eng ko'p murojaat qilinadigani dialogik nutqda izohlanishi, kengroq yoritilishi kerak bo'lgan so'z va jumlalar takrorlanishida kuzatiladi. Nasriy asarda takror birliklarning o'rni nazmdagidek yaqqol sezilmasligi mumkin, biroq matnning tarkibiy tuzilmasi yozuvchining umumiy maqsadi va qahramonlar nutqi inobatga olinganda takroriy birliklarning poetik vazifasi sezilib turadi.

10. Epigraflar, maqol, matallar, tarixiy rivoyat va afsonalar, pretsedent birliklar matnning intertekstualligini ta'minlashga xizmat qilgan. Intertekstuallikni yuzaga keltiruvchi vositalardan biri folklor materiallari bo'lib, asarda qahramon holati, ichki kechinmalari yoki voqealar tafsiloti bayonida bunday materiallardan keng foydalanilgan. Shuningdek, asarda matn ichida matn texnikasidan foydalanilgan holda rivoyat va afsonalarga murojaat qilingan.

11. Badiiy nutqda paranteza deb ataluvchi hodisaning ham alohida oʻrni bor. Qavs ichida berilgan gaplarning yoki kiritma konstruksiyalarning bir qator vazifalari boʻlib, ulardan asosiysi, gapdagi fikrga qoʻshimcha tariqasida yoʻl-yoʻlakay yangi fikr yoki qoʻshimcha maʼlumotlarni ifodalash hisoblanadi. Shuningdek, bu kabi birliklar badiiy matnning sintaktik va struktural jihatidan murakkablashuvini taʼminlaydi. Asqad Muxtorning "Chinor" romanida parantezalar koʻp qoʻllanadi va ular umumiy badiiy niyatning tugal ifodalanishiga xizmat qiladi. Parantezalar badiiy matnda koʻproq umumiy nutqqa qoʻshimcha izohlar kiritish uchun ishlatiladi. Romanda muallif yoki qahramon nutqida qoʻllanilgan parantezalar gapda aytilayotgan asosiy fikrga qoʻshimcha izohlar berish uchun ishlatilganini kuzatish mumkin. Qavs bilan ajratilgan parantezalarda esa fikriy alohidalik aniq sezilib turadi. Yozuvchi parantezalardan badiiy estetik maqsadini roʻyobga chiqarishda katta mahorat bilan foydalangan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 AT THE INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE, LITERATURE AND FOLKLORE

TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

NOROVA SHAKHODAT BAKHODIROVNA

ARTISTIC LANGUAGE SKILLS OF ASKAD MUKHTOR
(In the example of the novel "Chinor")

10.00.01 – Uzbek language

DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) IN PHILOLOGIICAL SCIENCES

Tashkent – 2024

The theme of (PhD) dissertation is registered by Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under the number №B2023.4.PhD/Fil4024

The dissertation has been prepared at Tashkent State Pedagogical University.

The abstract of the PhD dissertation is posted in three (Uzbek, English, Russian, (resume)) languages on the website of Scientific Council and "Ziyonet" information and educational portal (www.ziyonet.uz)

|	
Scientific advisor:	**Yuldashev Ma'rufjon Muhammadjonovich** doctor of philological sciences, professor
Official opponents:	**Mamatov Abdi Eshankulovich** doctor of philological sciences, professor
	Andaniyazova Dilrabo Ruzikulovna doctor of philosophy in philologicak sciences, senior scientific researcher
Leading organization:	**Tashkent State Uzbek language and Literature**

The defense of the dissertation will take place on "*3*" *April* 2024, at *14⁰⁰* at the meeting of the Academic Council DSc.02/30.12.2019.Phil.46.03 under Scientific Degree at Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore (Address: 100060, Tashkent, Shahrisabz St, Building 2. Tel.: (871) 233-71-44, fax: (871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz.)

The dissertation can be viewed in the Main Library of the Uzbekistan Academy Sciences (registered with the number *15*). (Address: 100170, Tashkent Ziyolilar St., 13. Tel.: (871) 262-74-58.

The abstract of the dissertation was distributed on "*16*" *march* 2024 year.
(Registry report number *9* on *16* - *March* 2024 year).

N.M.Mahmudov
Chairman of Scientific Council
awarding scientific degree,
Doctor of Philological Sciences, Professor

G.M.Ismoilov
Secretary of Scientific Council
awarding scientific degree,
Candidate of Philological Sciences,
Senior scientific researcher

D.S.Khudayberganova
Chairman of Scientific Seminar
awarding scientific degrees,
Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (The annotation of dissertation Doctor of Philosophy (PhD))

Actuality and necessity of the dissertation. In world linguistics, special importance has been attached to the attitude towards the language of the literary work and to the detailed study of the function of language units in the text of the work. In particular, since the second half of the XX century, the interest in studying the linguopoetic features of the artistic work has become one of the urgent problems. In particular, the increase in research based on anthropocentric principles makes it possible to fully and clearly understand the nature of such a complex phenomenon as language. In this regard, it is worth mentioning the rapid development of such fields as linguopoetics, linguopragmatics, and linguoculturology based on an anthropocentric approach to the linguistic units related to the language of certain literary works. Determining the expressive possibilities of the national language by researching the artistic language skills of writers and poets is one of the most urgent tasks.

In world linguistics, the lingupoetic research of the literary text is focused on the detailed study of the interconnection of words in the text, the formation of connections, and the poetic actualization of a specific unit. If we look at the researches related to linguopoetics conducted today, mainly the word and its forms of expression in the artistic text, the poetic actualization of this or that linguistic unit, the linguopoetic possibilities of the artistic and descriptive tools used in dialogic and monologic speech, the functional characteristics of intertextual relations, interdisciplinary it is felt that more attention is being paid to the research principles that emphasize integration and the research of phenomena that define the artist's skill. In particular, it is observed that the attention to the research of the linguistic skill of the creator has increased significantly more than ever. The need for research in this regard also determines the goals and tasks of research on linguopoetics. Therefore, in world linguistics, such studies are evaluated within the framework of current problems of linguopoetics.

In Uzbek linguistics, these issues are being researched to a certain extent, and noteworthy results are being achieved. Nevertheless, the works of famous artists who created a unique school in the field of artistic language and the researches related to the linguistic skills of the author cannot be considered sufficient. By studying the language of the literary work and the linguistic skills of the creator, it is possible to prove how rich and unique the possibilities of the national language are. The process of globalization in the world puts the preservation of the ancient values and spiritual heritage of each nation, the study of manuscript and written sources, research of their language features on the agenda. "The scientific heritage created by our great ancestors and which continues to amaze the whole enlightened world today is the spiritual property not only of one nation or people, but of all mankind".[42] In the years of independence, the glorification of our spiritual and cultural values, the granting of the status of our mother tongue as a state language, calls for the development of our language, comprehensive research into the scope of its use. Studying the artistic texts

---

[42] Mirziyoyev Sh. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oʻzbekistonda Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida. Qaror. / Xalq soʻzi. – Toshkent, 2017. 24-iyun.

created in this period, analyzing them from the point of view of linguopoetics allows to determine the linguistic level of not only the creators, but also the Uzbek people, the reader, and the changes that occurred in the speech process. Therefore, "...the task of development of scientific research and innovative activities, comprehensive support of creative ideas and developments" implies that any theoretical research should give practical results. [43] Accordingly, determining the poetic functions of units of language levels, researching the theoretical issues of linguopoetics, determining its place in the system of new sciences is one of the important issues of today's Uzbek linguistics. There is a need to determine the richness of the language of the works of a certain Uzbek writer in aesthetic-expressive tools, idioms and colorful movements, and to investigate the special significance of the syntactic devices present in the artistic text. Therefore, it is important to study the language of artistic text in the linguopoetic aspect and to determine the artistic language skills of a certain writer, as it makes it possible to give new scientific conclusions for our modern linguistics.

